



UDK: 81751

Bibish JO'RAYEVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: bibish.jurayeva@mail.ru.
Umida YAXYOYEVA,
Buxoro davlat universiteti PhD doktoranti

PhD M.Barotova taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA REPRESENTATIV AKT

Annotatsiya

Maqollar xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan folklor namunasi sanalib, hajman qisqa va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatlardir. Ularda chuqur mazmun, muayyan aniq shakl hamda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan bo'ladi. Ushbu maqolada maqollar representativ akt jihatidan o'rganilgan. Representativ akt–borliqda sodir bo'layotgan voqealarni tafakkurda idrok qilish, uning so'zlovchi tomonidan lisoniy vositalar orqali ifodalanishi hamda tinglovchi tomonidan anglanishi bo'lib, nutqiy muloqotda representativ aktlar ba'zan tinglovchi tafakkuridan kelib chiqib turlicha tushunilishi mumkin. Biz ushbu tadqiqot ishimizda turli asarlardagi parchalar asosida maqollarni representativ akt nuqtayi nazaridan tadqiq etdik.

Kalit so'zlar: Nutq akti, representativ, tasdiq, xabar, baho komponenti.

REPRESENTATIVE ACT IN UZBEK PROVERB

Annotation

Proverbs are examples of folklore created as a result of folk wisdom. They embody a deep content, a certain concrete form, and the life experiences, attitude to society, history, mental state, ethical and aesthetic feelings, and positive qualities of the ancestors. A representative act is the perception of reality in existence, its expression by the speaker through linguistic means, and its understanding by the listener. Representative acts in speech communication can sometimes be understood differently based on the listener's thinking. In this research, we analyzed proverbs from the point of view of a representative act based on excerpts from various works

Key words: Speech act, representative, confirmation, message, evaluation component.

ПРЕДСТАВИТЕЛЬСКИЙ ДЕЙСТВИЕ В УЗБЕК ПОСЛОВИЦА

Аннотация

Пословицы – это образцы фольклора, созданные в результате народной мудрости. В них воплощены глубокое содержание, определенная конкретная форма, жизненный опыт, отношение к обществу, истории, душевное состояние, этическое-эстетические чувства, положительные качества предков. В данной статье пословицы изучаются с точки зрения репрезентативного поступка. Репрезентативный акт – это восприятие существующей реальности, ее выражение говорящим посредством языковых средств и ее понимание слушающим. Репрезентативные акты в речевом общении иногда могут пониматься по-разному в зависимости от мышления слушающего. В данном исследовании мы проанализировали пословицы с точки зрения репрезентативного поступка на основе отрывков из различных произведений.

Ключевые слова: Речевой акт, представитель, подтверждение, сообщение, оценочный компонент.

Kirish. Bugungi kunda maqollarni kontekstda o'rganish antropologik yo'nalishdagi maqol yig'uvchilarning diqqat markazidir. Ular maqollarga faol og'zaki muloqotning bir qismi sifatida qaray boshladi va ularning matndagi vazifasiga e'tibor qaratdilar. Shunda maqollarni alohida nutqiy harakatlar bilan birlashtirish mumkinligi yaqqol ko'rinib qoldi[1]. Maqollarning nutqiy harakat sifatidagi tushunchasi ancha vaqtdan beri mavjud bo'lib, ushbu nutq harakatining maqollarga nisbatan qo'llanilishining dastlabki namunasi Norriqda[2] uchraydi. Maqollar nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ma'noda aytilgan narsalarni anglatadi, balki ichki yashirin ma'nolarga ega bo'ladi va buni faqat matnlaridagina anglash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Illokutiv aktlarning ilk turi representativ bo'lib, nemis tilshunosi K.Byuller representativ tipni olamni tushunish deb izohlaydi. Representativ akt terminiga ta'rif berilar ekan, bu strukturani nutq ishtirokchilari tomonidan olam va uning elementlarini tasavvur hamda idrok qilish jarayoni deb tushunish o'rinli bo'ladi. Hakimov M., Gaziyeva M. "Pragmalingvistika asoslari" kitobida: "Tilning representativ funksiyasi so'zlovchining borliqqa munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Munosabat esa olamni idrok qilish va anglash orqali yuzaga keladi. Borliqda sodir bo'layotgan voqealarni tafakkurda idrok qilish, uning so'zlovchi tomonidan lisoniy vositalar orqali ifodalanishi hamda tinglovchi tomonidan anglanishi representativ yoki xabar nutqiy aktidir", – deb talqin qilishadi. Usmanov

F. "O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi" ilmiy ishida "Olamning konseptual manzarasi borliqni idrok etish, tushunish va tasavvur qilishdan iborat bo'lib, bu ta'rif representativ aktning mohiyatini to'la-to'kis aks ettiradi. Lisoniy birliklarning representativ vazifasi olamning lisoniy manzarasida namoyon bo'ladi" – deb izohlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ushbu ishimizda nazariy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalandik. Asosan kuzatish, taqqoslash metodlariga tayandik. Taqqoslab o'rganishda ko'plab adiblar ijodiy merosidan parchalar keltirdik. Zero, yirik tilshunos N.Mahmudov "...qadim zamonlardayoq faylasuflar qiyos qilish bilishning onasidir deb, bu kategoriyaga alohida e'tibor berganlar. Avvaldan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan bilimlar o'zaro qiyoslanadi, analogik belgilar o'zaro umumlashtiriladi", – deb ta'kidlaydi. Professor A.Nurmonov ham, inson tasavvur bosqichida predmet, narsa va hodisalarni o'xshashlik belgilari asosida idrok eta boshlaydi, deya fikr bildiradi.

Tahlil va natijalar. Quyida "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" maqoli qatnashgan asarlarga yuzlanamiz va representativ akt nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz:

1.A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasi

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.

2.Said Ahmad "Oftobga chiqqan mushuk" hikoyasi

Xo'jayin shunaqa gapni bir haftadan beri kutardi. U salmoqlanib dedi: — Bu mushuk tekinga oftobga chiqmaydi. Shu-shu bo'ldi-yu, idora xodimlari oyiga ikki martadan mushukni oftobga olib chiqib o'ynatib keladigan bo'lishdi. Xo'jayin bir yilga qolmay mushuk pulidan o'g'liga "Jiguli" olib berdi.

3A.Qodiriy "Mehrobdan chayon" romani

"Maxdum ko'pincha kishilar Anvarga uchrashib tarqalg'uncha, yo'lakda o'turib olar edi. Hatto ba'zi vaqt ikki og'iz so'z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar: "Mishiq oftobga tekin chiqmaydir", sizdan aqcha so'rashqa iymanganda, menga bir narma tashlab ketsangiz o'zim unga berib qo'yarman", -deb ariza yozdirg'uchining bor aqchasini qoqmalab qolar edi.

"O'g'ri" hikoyasi qahramoni Qobil boboning o'z-o'ziga aytgan "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi" nutqini tahlil etar ekanmiz, Sh.Safarovning quyidagi fikrlariga to'xtalamiz: "Biz muloqot jarayonida mazmunder lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir. Agarda biror bir sabab bilan mazmunder gap talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi"[3]. Ko'rinadiki, Qobil boboning ichki nutqi sifatida keltirilgan ushbu maqolda lokutiv akt yo'q.

Ikkinchi parchada esa xo'jayin tomonidan maqol talaffuz etildi va lokutiv akt sodir bo'ldi. Nutq talaffuz qilindimi, albatta, tinglovchiga ma'lum axborotni yetkazish maqsadi bor. Ushbu maqsadning voqelanishi natijasida illokutiv akt sodir bo'ladi. Yozuvchi S.Ahmad "Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi maqoli vositasida o'sha davrdagi ijtimoiy tuzum illati bo'lgan poraxo'rlikni mushuk talqinida bergan. Ma'lum bo'ldiki, ta'magir xo'jayin o'z niyatini ushbu maqol bilan ochiqdan-ochiq bildirib, uning xodimlaridan kutayotgan "pora"si eksplitsit tarzda ifodalangan. "Mushukning oftobga chiqishi" oxir-oqibatda xo'jayin o'g'lining "Jiguli" mashinasiga ega bo'lishi bilan yakunlanadi.

Uchinchi parcha Solih Mahdum nutqidan olingan bo'lib, bu jumladagi mishiq oftobga tekinga chiqmaydi maqoli hozirgi tilimizda qo'llanilayotgan "Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi" maqolining shevaga xos shaklidir. Maqol Solih Mahdum tomonidan aytiladi -lokutsiya bor. Lokutiv akt sodir bo'diki, unda illokutiv akt (kommunikativ maqsad) sodir bo'ladi. Ushbu maqol "Sizdan ugina, bizdan bugina" qabilida ish ko'ruvchi poraxo'r, ta'magir odamlarga nisbatan kinoya tarzida qo'llaniladi.

Bu fikrning tasdig'ini biz ushbu maqol tahlilida ham ko'ramiz. Iqtisodiyot hech narsani tekin deb qabul qilishingizga yo'l qo'ymaydi, u har narsani o'lchashga undaydi. Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, tekin narsaning o'zi yo'q! Qobil boba tilidan keltirilgan maqolda reprezentativ akt baho komponentining salbiylikdan ko'ra ijobiylik belgisi ustunroq. Sababi "Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozimda". Bu o'rinda Qobil boba ellikboshining "mehnat"ga yarasha "haq to'lanishi lozimligi"ni o'zi xohlaydi va o'z fikrini to'g'ri ekanligini isboti sifatida ushbu maqolni ta'kidlaydi. Ushbu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va ijobiylik ma'nosi aks etgan. Ikkinchi misolda uchiga chiqqan ta'magir xo'jayinning ochiqdan-ochiq xodimlaridan kutayotgan "pora"si nazarda tutilgan. Bu nutq parchasida xabar, tasdiq va salbiylik ottenkalari mavjud. Uchinchi misolda esa bu maqol Solih maxdumni butun shaxsiyatini ochib bergan, chunki "ziqna"likda tengi yo'q va har qanday ishida ikkinchi tomondan "u"gina bo'lgan tadqirdagina Solih maxdum tarafidan "bu"gina bo'lishini asar davomida Anvar "mirzo" etib tayinlangandagina Ra'noni unga uzatishga moyil bo'lganini kuzatamiz. Ushbu maqolda ham xabar, tasdiq, salbiylik ma'nolari aks etgan.

Quyida A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasida qo'llagan "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqolini reprezentativ akt jihatdan tahlilga tortamiz.

1.A.Qahhor "O'g'ri" hikoyasi

Kechqurun Qobil boba aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz.

2.Hamza Hakimzoda Niyoziy "Boy ila xizmatchi" pyesasi

Q o z i. (G'ofirga.) Hozirgi inoding ayni hamoqat!

Xolmat (imomga.) Charchamaysiz, domla pochcha, faqat quruq qoshiq og'iz yirtadi, xolos! Satqayi gapingiz ketsin, bu gadoga!

3. Xayriddin Saloh "Ko'ngul ozodadur" qissasi

Binobarin mening paxtakor otam ham hafta sayin avtobusda rayon markazi sari zuv-zuv qatnaydiki, do'kon-po'konga kartoshka, piyoz-miyoz kelib qolarmikan! Qarqunoqdek og'zini ochib o'tirgan sakkiz bolani masal bilan boqib bo'lmaydi, mavlono Gulxaniy!

"Ore rost aytasiz,-degan guldurak tovushdan cho'chib tushdim.Ro'paramda shamshoddek bo'lib Muhammad Sharif turardi. - Mashoyixlar so'zi budurkim, quruq qoshiq og'iz yirtar"

Birinci parchada keltirilgan "Quruq qoshiq og'iz yirtadi" maqoli Qobil boboning mavjud vaziyatdan kelib chiqqan monologi. Demak, lokutsiya yo'q.

Kontekstdan kelib chiqsak, bu maqoldagi illokutiv akt - Qobil boba keksalarga xos hamda o'zbek milliy urf-odatlarimiz yuzasidan birovning oldiga "quruq" bormoqchi emas, chunki u "quruq" borsa, uning ishi bitmasligini biladi. O'sha davrda jamiyatda ildiz otgan poraxo'rlikning yozilmagan qonuni shunday. Demakki, birovga ishing tushsa, unga qilinadigan iltimos shunchaki bo'lmasligi lozim. Birovdan biror manfaat ko'rmoq uchun uni ham biror narsa bilan manfaatdor qilish, kiringa erishmoq uchun chiqimdan qochmaslik kerak bo'ladi. Ushbu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va ijobiylik ma'nosi aks etgan.Chunki Qobil boba bu oxirgi chiqimligini va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqimligini, shuning uchun pulning yuziga qarash aqlidan emasligini biladi.

Ikkinchi parcha Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" pyesasidan olingan bo'lib, pyesa voqeasi uch xotin, besh farzandli oltmish yoshli Soliboy yoshi bir joyga borib qolganda G'ofir ismli xizmatkorini uylantirib, "san mani o'g'linsan, xotining endi menga kelin bo'ldi", deb turib Jamilaga ko'zi tushishi bilan ahidan qaytib "shariat peshvolari" bo'lmish o'zining laganbardorlari domla,qozi,imom va Xolmatlarni chaqirib G'ofirni xotinini taloq qilishga ko'ndirmoqchi bo'ladi. Ammo G'ofirni so'z bilan xotinini qo'yishga ko'ndirolmagach, har narsani o'z qarichi bilan o'lchaydigan laganbardorlar Gofirni qarshiligini uning muddaosi boyning pulida gumon qilib "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqolini aytishadi va Gofirga ming so'mni tutqazadi. Ushbu maqol Xolmat tomonidan talaffuz etildi-lokutsiya bor. Maqolning kontekstdagi maqsadi- aytilayotgan shuncha gaplar "quruq" bo'lib, rozilikka "moyli" yo'l orqali erishiladi. Bu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va salbiylik ma'nosi aks etgan

Uchinchi parcha Xayriddin Sultonning "Ko'ngul ozodadur" qissasidan olingan bo'lib, qissada ozoda ko'ngil egasi bo'lgan G'ulom Muhammad Sharif Gulxaniy bilan hayolan birga yashaydi, suhbatlashadi, ammo Gulxaniyni qalb ko'zi bilan ko'rish, dil qulog'i bilan eshitish mumkin. Asar Gulxaniyning hikoyatlari, maqollari va baytlari bilan yanada boyitilgan. Tahlil qilinayotgan "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqoli Muhammad Sharif tomonidan aytilgan. Lokutsiya bor. Ushbu maqol G'ulom otasining og'ir ahvoli tasdig'i sifatida keltirilgan. Illokutiv akt-G'ulomning paxtakor otasi qishloqda sakkiz jonni boqish maqsadida hafta sayin avtobusda rayon markazidagi do'konga oziq-ovqat ilinjida qatnaydi, chunki sakkiz jonni masal bilan qornini to'ydirib bo'lmaydi. Ushbu nutq parchasida reprezentativ aktning ta'kid, tasdiq va salbiylik ma'nosi aks etgan.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, reprezentativ aktli maqollar tinglovchiga muhim xabar yoki saboqni ixcham, qisqa ifodalarda yetkazadi. Ushbu tahlillar ko'rsatdiki, pragmatik, ya'ni implisit ma'no ijodkorning maqsadlari tufayli paydo bo'ladi va bunda kontekstning o'rni katta ahamiyatga ega. Zero, maqollar turli kontekstlarda turlicha illokutsion aktlar orqali ishlatilishiga guvoh bo'ldik. Yuqorida bir maqol ijtimoiy munosabatlarda ijobiy baholash akti sifatida ishlatilsa, boshqa kontekstda u tanqidiy akt sifatida ishlatilishi mumkinligini ko'rib o'tdik.Demak, kontekst maqolning ma'nosini, uning qanday kommunikativ vazifa bajarishini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR

1. Hakimov M. "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini". Filolog.Fan.Dok...diss.-Toshkent, 2001.
2. Norrick N. R. How proverbs mean. Semantic studies in English proverbs. – New York: Mouton, 1985
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika.-Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh..Ma'nolar maxzani. —T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
5. Jurnallar
6. Alshorafat, O. (2016). Speech Acts of NorthEastern Badia's Proverbs. AM Thesis. Al-alBayet University. Jordan.
7. Ali, A & Makhlef, A Speech Act Analysis of Some English and Arabic Proverbs. Tikrit University Journal for Humanities.
8. Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 144 с.; Арнолд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982. – №4. – С. 83-91.
9. Hor, G & Jamal, H. (2007). A Test of Searle's Speech Act Theory: A case Study of Lebanese Religious Proverbs. International Journal of Humanities.
10. Jombadi, A & Juliana, J. (2014). A Pragmatic Study of Yoruba Proverbs in English. International Journal of Novel Research in Education and Learning.
11. Mieder, W. (2004) Proverbs: A Handbook. Westport/Connecticut/London, Greenwood Press.
12. Norrick, N. R. (1985) How Proverbs Mean. Berlin, Walter de Gruyter
13. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008.